

## IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO‘NG O‘ZBEKISTON SSR DA TA‘LIM TIZIMI

**Karimov Azizbek Avazbekovich**  
**Namangan davlat universiteti**  
**Tarix yo‘nalishi magistranti**

### **Annotatsiya:**

Ilmiy maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi O‘zbekiston SSRdagi ta‘lim sohasidagi amalga oshirilgan islohatlar hamda ularning kamchiliklari haqida ma‘lumot berilgan. Bundan tashqari ta‘lim sohasida sovet mafkurasining hukmronlik qilishi va salbiy oqibatlarini yoritib berilgan.

### **Tayanch so‘zlar:**

SSSR, kommunizm, rivojlangan sotsializm, O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi, konferensiya,

Ikkinchi jahon urushini g‘alaba bilan tugallagan SSSR o‘zini yanada mag‘rur tuta boshladi. Oliy siyosiy rahbariyat fashizm ustidan qozonilgan ushbu g‘alabani “Sotsializmning imperializm-kapitalizm ustidan qozongan g‘alabasi”, Marksizm-Leninizm-Stalinizm g‘oyasining “mardonavor tantanasi”, kommunistik mafkuraning yengilmas kuchi sifatida izohladilar.

Sovet qo‘shinlari fashistlardan ozod qilgan bir qator Yevropa mamalakatlarida (Bolgariya, Vengriya, Germaniyaning bir qismi, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya va boshqalar) “sovetlarcha” yangi hukumatlar tashkil qilinib, ular “sotsialistik yo‘l”dan bora boshladilar<sup>1</sup>. Bu jarayonni kommunistik mafkura rahnamolari “Sotsializmning jahon miqyosida g‘alabasi”, “sotsializmning bir necha mamlakatlarda birdaniga g‘alaba qilishi”, “sotsialistik sistemaning yuzaga kelishi” deb baholadilar.

50-yillarning oxirlarida “SSSRda sotsializmning to‘la va uzil-kesil g‘alaba qilganligi”ni KPSS XXI syezdi (1959-yil yanvar-fevral) tantanali ravishda e‘lon

<sup>1</sup> Жўраев М. ва бошқалар. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида.(Иккинчи китоб). – Т.: Шарқ, 2000. – Б.569.



qildi. Shu bilan birga, siyosiy rahbariyat “80-yillarda sovet xalqi “kommunizmda yashaydi”, deb va’da berdi.

Biroq mustabid tuzum o‘z mohiyatiga ko‘ra unitar (qo‘shma) davlat bo‘lganligi uchun ham bunday “erkin jamiyatni” yarata olishi mumkin emasdi. 60-yillardayoq jamiyat taraqqiyotida kundan-kunga sekinlashish mexanizmi tobora kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ham beqaror rivojlanish ko‘zga tashlandi va SSSRda 80-yillarga kelib “va’da qilingan kommunizm” bo‘lmasligi yaqqol sezilib qoldi. Shu boisdan ham Markaz siyosiy rahbariyati sovet xalqlarini “kommunizmga yashashiga” ishontirgan N. Xurushchovga barcha aybni qo‘yib, “kommunizmga erishish” uchun yana bir bosqich-“rivojlangan sotsializm” bosqichini bosib o‘tish zarurligi, busiz “kommunizmga o‘tib bo‘lmasligi” aytib o‘tildi. Shu asosda “kommunizm g‘oyasi” o‘rniga navbatdagi aqida - “rivojlangan sotsializm” g‘oyasi sovet jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotiga sun‘iy ravishda kiritildi. Bu partiyaning navbatdagi g‘oyaviy-siyosiy o‘yini, xalq ommasi e‘tiborini mustabid tuzumning illatlari oqibatida yuzaga kelgan jamiyat taraqqiyotiga, fuqarolarning kundalik hayotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan muhim muammolardan chalg‘itish edi. 60-80-yillarda partiya “rivojlangan sotsializm”ga erishish uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini ishga soldi, ommaviy axborot, targ‘ibot-tashviqot vositalari xalq ommasi ongiga “rivojlangan sotsializm” bosqichida sotsializm o‘zining eng yuqori “fazasi”ga erishadi, bu davrda sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va texnika, madaniyat-ma‘rifat ulkan darajada rivojlanadi. Xalqning turmush darajasi muntazam oshib boradi, sovet kishilarining yangi “sotsialistik turmush tarzi” shakllanadi, degan soxta, amalga oshirib bo‘lmaydigan g‘oyalarni singdirishga harakat qildi<sup>2</sup>.

Eng muhimi shundaki, bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan yagona “sovet madaniyati” yaratilganligining e‘tirof etilishi SSSRga birlashtirilgan barcha xalqlar ma‘naviyatining bundan keyingi yo‘nalishini belgilab berdi. Ushbu davrda madaniyatga xos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lgan erkinlik, demokratiya batamom yo‘q qilindi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning “rivoji” maxsus qolipga solindi. Siyosiy o‘lchovlarga, kommunistik mezonga javob

<sup>2</sup> Жўраев М. ва бошқалар. Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида.(Иккинчи китоб). – Т.: Шарқ, 2000. – Б.570.



bermagan har qanday asar yo‘qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatda yaroqsiz shaxs sifatida “chetga surib” qo‘yildi.

60-yillar O‘zbekistonda “rivojlangan sotsializm” bosqichi deb e‘lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy sohalarda jiddiy sifat o‘zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Biroq, amalda unday bo‘lmadi. Lekin buning o‘rniga siyosiy rahbariyat aqidaparastlikni, ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta‘lim tizimi ham ana shu “girdob”ga tashlandi<sup>3</sup>.

Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus-tili va adabiyotini kengroq o‘qitishga urg‘u berdi. Natijada 60-yillarda O‘zbekiston tarixi, o‘zbek tili va adabiyoti, chet tillari, musiqa va qo‘shiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o‘quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo‘shagan soatlarda esa rus tili va adabiyoti predmeti o‘qitildi. Masalan, o‘qituvchilar “XIX-asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida o‘zbek adabiy-badiiy muhiti”, “milli-madaniy jarayonlar” to‘g‘risidagi mavzularda dars o‘tishi lozim bo‘lgan soatlarda rus madaniyatining “progressiv” ahamiyatini ko‘rsatib berishga majbur bo‘ldilar. Nihoyatda boy va ko‘hna o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang‘ich maktablarda rus tili va adabiyoti predmetlari uchun 1600 soat ajratildi.

Umumta‘lim maktablarining faoliyati asosan “rivojlangan sotsializm” g‘oyasini o‘quvchilarga singdirish, ularni “kommunistik ruhda” tarbiyalashdan iborat bo‘ldi. “Kommunistik tarbiya”dan ko‘zlangan maqsad esa yoshlarni “proletar internatsionalizm”ga, “katta og‘aga” sodiqlik, sinfiylik, partiyaviylik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Milliylik esa o‘zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Yevropa madaniyati, tarixi amalda baynalmilalchilik namunasi sifatida talqin etildi.

Natijada, o‘zbek o‘quvchilarida milliy o‘zlikni anglash, urf-odat, milliy an‘analarga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari ro‘y bera boshladi. Maktab o‘quvchilarining o‘quv rejasidagi soatlarini o‘zlashtira olmasligi odatiy hol bo‘lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa qishloq-xo‘jalik ishlariga ko‘proq jalb qilinishi bilan izohlanadi. O‘quv yilining 3-4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo‘lishga ketar edi. Bu esa o‘zbek o‘quvchisini jahon standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o‘zlashtirishga imkon bermasdi.

<sup>3</sup> Жўраев М. ва бошқалар. Ko‘rsatilgan asar. – Б.572.

Ikkinchi jahon urushidagi katta yo‘qotishlar oliy ma‘lumotli xodimlarning son va sifat jihatidan kamayib ketishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida urushdan keyingi yillardayoq oliy ta‘limni rivojlantirish zarur ekanligini taqozo etardi.

O‘zbekiston xalq ta‘limi, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tarmoqlari qoldiq prinsipiga asosan mablag‘ bilan ta‘minlanganlar<sup>4</sup>. Shu boisdan ular juda nochor moddiy bazaga ega edilar. Respublikada ta‘lim uchun ajratilgan kapital mablag‘ning o‘shish dinamikasi bu fikrni yaqqol isbotlaydi. Ta‘lim uchun ajratilgan kapital mablag‘ hajmi 1960-yilda 282 million so‘m, 1970-yilda 951 million, 1980-yilda 925 million, 1985-yilda 2.619 million so‘mga teng bo‘lgan. Boshqacha aytganda, fan, madaniyat va xalq ta‘limiga sarflanadigan xarajatlarning jamini birga qo‘shib hisoblaganda ular budjet mablag‘larining 2.7% dan nariga o‘tmas edi. Holbuki, Amerika Qo‘shma Shtatlaridek 100 yillar davomida yuksak taraqqiyot darajasida kelayotgan mamlakatda 1989-yilda ta‘lim uchun qilingan umumiy xarajatlar 260 milliard dollarga teng bo‘ldi. Bu AQSH davlat budjetining 6.4%ini tashkil etadi. Juda ko‘pchilik Yevropa mamlakatlari ham ta‘lim uchun davlat budjetining 5.5 foizini sarflaydi, hatto Afrika qit‘asida joylashgan mamlakatlar ham ta‘lim uchun davlat budjetining 5.4 foizini sarflaganlar. Bu O‘zbekistondagi shu maqsad yo‘lida 80-yillarda sarflangan harajatlardan 2 barobar ko‘p demakdir. Shu boisdan ham 80-yillarga kelib O‘zbekiston umumta‘lim, o‘rta-maxsus va oliy ta‘lim tarmoqlarining moddiy bazasi juda og‘ir va nochor ahvolda edi.

Yozma manbalarning ma‘lumotlariga qaraganda, respublikadagi har to‘rt maktabdan biri avariya holatida bo‘lgan, 2895 sinf xonasining poli, 3302 sinfning shifti bo‘lmagan<sup>5</sup>. 50 foiz maktablarda ovqatlanish uchun sharoit, ichimlik suvi va kanalizatsiya bo‘lmagan. 1 mln 200 ming o‘quvchi 2 smenada, Qoraqalpog‘istonda, Toshkent va Farg‘ona viloyatlaridagi 35 ta maktabda darslar 3 smenada olib borilgan. Maktablarning yillik ta‘mirlash va yangi o‘quv yiliga tayyorlash ishlari asosan otalik tashkilotlari va ota-onalar ajratadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladigan bo‘lib qoldi. Oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim tarmoqlarining ahvoli ham bundan afzal emas edi. Maorif tarmoqlarining o‘quv texnika va metodik bazalarining nochorligini gapirma ham bo‘ladi.

<sup>4</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob). – T.: Sharq, 2010. – B.392.

<sup>5</sup> Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. - B.540.



Maktablar va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan fanlarning o‘quv dasturlari Moskvada tayyorlanar va O‘zbekiston sharoitiga moslashtiriladi. Tabiiyki, bunday holatda ta‘lim batamom mustamlakachi sovet manfaatiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Kompartiya MQ Byurosining 1983-yil 10-iyunda qabul qilgan “Rus tilini o‘rganishni takomillashtirish va o‘smirlarni Sovet Armiyasi xizmatiga tayyorlashni yaxshilash bo‘yicha respublika Ilmiy-amaliy konfrensiyasining yakunlari to‘g‘risida”gi 656-sonli qarorida O‘zbekistonda rus tilini o‘rganish yuzasidan juda katta ishlar qilinganligi qoniqish bilan qayd etiladi. Jumladan, mamlakatda rus tilini chuqur o‘rganish bilan shug‘ullanadigan 13 maxsus maktab-internat va 1959 umumta‘lim maktablari ochilgan. Barcha milliy maktablarda rus tilida ta‘lim-tarbiya beruvchi sinflar tashkil etilgan.

Toshkentda 1975 va 1979-yillarda rus tilini o‘rganishni yaxshilashga bag‘ishlangan Butunittifoq nazariy-ilmiy konfrensiyasi bo‘lib o‘tdi<sup>6</sup>. Bunday konfrensiya 1983-yil 20-21-mayda Samarqand shahrida ham uyushtirildi.

Maktabdan tortib to oliy o‘quv yurtlariga qadar mahalliy millat vakillariga rus tilini o‘rganish majburiyati yuklandi. Rus tilida so‘zlashuvchi millatlarning o‘g‘il-qizlariga maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘z istak-xohishlariga ko‘ra chet tilaridan birini tanlab egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan bo‘lsa, mahalliy millat vakillari uchun bunday imkoniyat yo‘q edi. Ular oliy maktabda ham faqat rus tilini o‘rganishlari kerak edi. Maktablar, oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida haftada bir marta rus tili kunlari tashkil etish odat tusiga aylandi. Shu kuni yigit-qizlar o‘zaro faqat rus tilida muomala qilishga majbur edilar, o‘z ona tillarida esa gapirishlari mumkin emasdi. Maktablar, oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlaridagi barcha binolar, xonalar va yotoqxonalar ba‘zan rus tilida tashviqot va targ‘ibot ko‘rgazma qurollari, shiorlar va chaqiriqlar bilan bezatilar edi. Bu ishlarning hammasi milliy manfaat va qadriyatlarimizning toptalishi va oyoqosti bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

XX asrning 50-60-yillaridan boshlab o‘zbek tili davlat idoralaridan, yig‘lish va majlislarda deyarli muomaladan chiqarildi<sup>7</sup>. Oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida esa uning roli tushib ketdi. O‘zbek tilida chop etiladigan darsliklar, o‘zbek

<sup>6</sup> Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B.542.

<sup>7</sup> O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlari nomutaxassis talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: VNESHINVESTPROM, 2019. – B.422.

va sovet adabiyot namoyondalari, hatto Navoiy asarlarining ta'siri tobora kamayib bordi. Turli muassasa va korxonalarda ko'pincha yerli aholi aksariyat ko'pchilikni tashkil etgani holda turli doiradagi yig'ilish va majlislar faqat rus tilida o'tkaziladigan bo'ldi. Milliy kadrlarimizning ma'lum qismi esa, ba'zi sabablarga ko'ra, ona tilida yozish va so'zlashni unutmadilar.

O'zbek tiliga bo'lgan e'tiborsizlik shu darajaga borib yetgan ediki hatto, Madaniyat instituti va Teatr rassomchilik institutidagi o'zbek tili kafedralari ham tugatilib, ba'zi oliy o'quv yurtlaridagi o'zbek tili kafedralari “O'zbek tili kafedrası” deb atalmasdan “Tillar kafedrası” deb yuritila boshlandi. Mahalliy ziyolilarni birlashtiruvchi ijod uyushmalarda ham ishni asosan rus tilida olib borishar edi. O'zbek tilida kitoblar chop etish mushkul ahvolga tushib qoldi. Respublika fanining markazi bo'lgan O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida ham ilmiy asarlar rus tilida chop etildi. Masalan, O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Tarix institutida tayyorlangan ilmiy asarlarning 80 foizi rus tilida, 16 foizi xorijiy tillarda, atigi 4 foizi o'zbek tilida nashr etildi<sup>8</sup>.

Bunday mafkuraviy biqizlik aslida ta'lim muassasalarda boshlangan edi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, rus terminologiyasi mukammal ishlangan, sobiq SSSRda millatlararo fikr almashish vositasi uchun qulay edi. Lekin yillar davomida “rivojlangan sotsializm” g'oyasining o'quvchilar ongiga singdirish hisoblangan rus tili va adabiyotiga imkoniyat keng edi. Masalan, o'zbek tilida ta'lim beradigan maktablarning har bir sinfiga rus tili va adabiyotini o'rganish uchun 3390 soat ajratgani holda rus tilida o'qitiladigan maktablar uchun o'zbek tili va adabiyotini o'rganishga atigi 560 soat yoki qariyb 6 baravar soat kam vaqt berilgandi. Hatto, 1988-yilga kelib respublikada rus va boshqa millat vakillarining o'zbek tili o'quv kitobiga, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlarga bo'lgan talablarini ham qondira olmadi.

Albatta, madaniy qurilishning sovet variantidagi salbiy hodisalar o'zanida namoyon bo'lgan 20-50-yillarning yutuqlari orasida ta'lim darajasining sezilarli darajada ko'tarilganini, keng tarmoq otgan maktablar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari tizimini yaratilishini, mutaxassislarning katta avlodi shakllanganligini ta'kidlash lozim. Masalan, 1959-yildagi aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra,

<sup>8</sup> O'zbekiston tarixi (Oliy o'quv yurtlari nomutaxassis talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: VNESHINVESTPROM, 2019. – B.422.

respublikaning 9 yoshdan 49 yoshgacha bo‘lgan aholisi orasida savodxonlar 98,1 foizga yetdi<sup>9</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu davrda yurtimizdagi barcha sohalarda bo‘lgani kabi ilm-fanda ham sovetlarning mafkurasini asosiy o‘rin egalladi. Ta’lim tizimi ularning manfaatlariga bo‘ysundirilganini alohida ta’kidlash lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жўраев М. ва бошқалар. Ўзбекистон Совет муштамлакачилиги даврида (Иккинчи китоб). – Т.: Шарқ, 2000.
2. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. – Т.: Sharq, 2011.
3. Ўзбекистон тарихи. (Олий ўқув юртларининг номутахассис талабалари учун дарслик). Р.Х.Муртазаеванинг умумий тахрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2003.
4. O‘zbekiston tarixi (Oliy o‘quv yurtlari nomutaxassis talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2019.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob). – Т.: Sharq, 2010.

# Research Science and Innovation House

<sup>9</sup> O‘zbekiston tarixi. (Oliy o‘quv yurtlari nomutaxassis talabalari uchun darslik). R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – Т.: VNESHINVESTPROM, 2019. – В.423.

